

**A`ZAM O`KTAM SHE`RIYATIDA MUMTOZ POETIK OBRAZLAR
IFODASI**

Nishonova Xurshida Yusufjanovna

*O`zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
tayanch doktoranti*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda XX asr so`nggi yillarida yaratilgan, shoir Azam O`ktam ijodida o`zgacha badiiyatga ega bo`lgan “Ikki dunyo saodati” to`plamida davom ettirilgan mumtoz an`analar va uning she`riyatdagi o`rni xususida so`z boradi.*

***Kalit so`zlar.** Arbain, tasavvuf, she`riy sharh, hadis, an`ana, qadriyat, mumtoz an`ana.*

Adabiyot o`zi mansub bo`lgan xalqning milliy ruhi, turmush tarzi, ustozlar tajribasi, ma`naviy-ahloqiy, diniy-ilohiy tushuncha va qadriyatlariga tayanadi. Shuning uchun ulardan holi ravishda adabiy jarayon mohiyatini belgilash ham, mavjud an`analarning badiiy ijoddagi rolini baholash ham mushkul. Uning din bilan chambarchas bog`liqligini ham inkor etib bo`lmaydi. Din tasavvuf ilmining badiiy adabiyotdagi in`ikosi ko`pgina olimlar tomonidan o`rganildi, qator ilmiy yangiliklar amalga oshirildi.

Ma`lumki, tasavvuf sharq dunyosining ijtimoiy, madaniy, falsafiy, adabiy hayotiga ta`sir qilgan. Mumtoz adabiyot namoyandalaridan ko`pi ma`lum bir tariqat vakili sifatida nom qozongan. Bu adabiyotdagi g`oya va obrazlar tizimining kengayishiga sabab bo`lgan. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg`oniy, So`fi Olloyor, Qul Ubaydiy, Miskin, Hislat kabi sof diniy-tasavvufiy adabiyot namoyandalari bor va she`r ular uchun irfoniy fikr-qarashlar talqini va targ`ibida muhim bir vosita edi.

Islom dinining asosiy manbai “Qur`on”i karim bo`lib, Payg`ambarimiz(s.a.v)ning hayoti va faoliyat, ularning diniy, axloqiy ko`rsatmalarini qamrab olgan hadislar undan keyin turadigan bebaho manba. Qur`oni karimda hadislarida shariat ahkomlarida ifoda etilgan barcha ilmi-amaliyotlarga doir g`oyalar atroflicha talqin etilib, batafsil izohlab berilgan.

Tasavvufning badiiy adabiyot bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa emas. Sharq mumtoz poetikasi tajribalaridan ma`lumki, adabiyotning taraqqiyot asoslaridan birini islom dini tashkil etadi. Ijodkorlar “Qur`on”i karim oyatlaridan ilhomlanmay, Payg`ambarimiz(s.a.v.) hadislarini o`rganmay, shariat ahkomlarini bilmay turib asar yaratishmagan. Hamidulla Karamatovning yozishicha, "Hozirgacha bizga ma`lum turkiyabon xalqlarning eng ko`hna asari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg`u bilig"i bo`lib, unda biz islom mavzulari va Qur`oniy iboralarning matnda ko`p va xo`b qo`llanganligidan voqif bo`lamiz" . Undan so`ng Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmati", Nosiriddin Rabg`uziyning

"Qissas ul-anbiyo" asarlari bu yo‘ldagi hayrli ishlardan edi. Va bu badiiy adabiyotning xolisligi va hikmatli bo‘lishini ta‘minlagan.

Sho‘ro tuzumi davrida xalqimiz islom va tasavvuf olamidani uzoqlashtirilgan bo‘lsa-da, adabiyot tasavvufdan uzilib qolmadi. Chegaralab qo‘yilgan adabiyot doirasida turib ham diniy tushunchalarni berish imkonini topildi.

Mustaqillikdan keyin uyg‘onish Sharqida paydo bo‘lgan poetik an‘analarga qaytish yaqqol ko‘zga tashlandi. Adabiyot diniy falsafadan oziqlana boshladi. Jumladan Abdulla Oripovning “Haj daftari”, “Hikmatli dunyo”, Shukur Qurbonning “Sizni Xudo etkazdi”, va “Arba’in” Toxir Malikning “Axloq kitobi”, Fozil Zohidning “Ota bog‘i”, “So‘roqlasa meni do‘stlar” singari asarlari tasavvufni targ‘ib etishdagi roli beqiyosligi hamda badiiy jilosi bilan ahamiyatli.

O‘tgan asrning so‘nggi yillarida muborak hadislarning mazmuni, ayniqsa, she‘riyatimizga chuqur singib bordi. Xususan, A‘zam O‘ktamning “Ikki dunyo saodati” to‘plami ana shu jihati bilan diqqatga sazovordir. Chunki shoirning bu kitobi birinchidan, payg‘ambarimiz (s.a.v.) kalomlari ta‘sirida tug‘ilib, pand-ibratga boy bo‘lsa, ikkinchidan, hadislar she‘riy talqinlarini yaratish an‘anasini davom ettirgan. "Ikki dunyo saodati"da bir qancha diniy tasavvufiy tushuncha va haqiqatlar yangicha poetik usul va obrazlar orqali talqin qilingan. Kitobda umumbashariy muammolarning sharqona ifodasini ko‘rish mumkin. Imom al-Buxoriy tomonidan to‘plangan hadislarning 45 ta bolalarga taalluqli bo‘lganlari to‘planib, unga she‘riy izoh va talqinlar jamlangan. Unda chin odamiylik kuylanar ekan, e‘tiqod masalasi etakchilik qiladi.

*Kim har nedan sevsa Oллоhni,
Sevsa yana Rasulullohni,
Qo‘yar bo‘lsa, kimga muhabbat,
Oллоh uchun sevolsa faqat;
Kofirlikka qaytmoqdan esa,
O‘tga tushgan yaxshiroq desa –
Anglar Oллоh sahovatini,
Topar iymon halovatini¹*

Dunyo osoyishtaligidan voz kechib, qalb halovatiga qachon erishish mumkin? Bu yo‘lda qanday tadbirlar lozim? Bu kabi savollarga kitobdagi sharhlardan javob olish mumkin. Ularning tub mohiyatida insonning qalb qa‘riga nazar tashlash, yashirin tuyg‘ularni kashf etish, soflikka da‘vatdan ko‘ra ehtiyoj uyg‘otishga intilish etakchilik qiladi. Bundan tashqari har bir she‘riy sharh va unga keltirilgan izohlar g‘oyat ibratli, qolaversa, islom o‘tmishidan lavhalar keltirish orqali Sharqda tarix ibrat manbai deb qarashga ham ishora bor. Tarix insoniyatni "ildiz"ga, ya‘ni o‘zi

¹ A‘zam O‘ktam, Ikki dunyo saodati, -T.: Cho‘lpon, 1998, 21-b.

anglab etishga intilgan haqiqatga - "*asliyat*"ga eltadi. "*Asliyat*" esa qalb tarbiyasi uchun vosita. Sabab esa barcha mutasavviflar ta'kidlaganidek "*odam*"dir.

Tasavvufiy qarashlarda inson tuproq, suv, havo, olovdan iborat bo'lganidek, uni oliy maqomga etishida yoki tubanlik tomon ketishida ham to'rt narsa bor. Bu shoirning "*Ofat ham, najot ham o'zidan*" hadisiga yozilgan sharhda shunday beriladi.

*Rasululloh demishlar bir kun,
To'rt fitna bor odamzod uchun.
Oilasi molu dunyosi,
Farzandlari va hamsoyasi...²*

Demak, odam bolasini to'rt narsa orqali shayton vasvasaga solib turadi. Ammo bu yo'lda Olloh inson uchun himoya vositasini tayyorlab qo'ygan.

*Amri ma'ruf va nahiylar munkar,
Namoz, ro'za, zakot qutqarar³.*

Izohda muallif o'z xulosalarini keltirar ekan, "oila va bola-chaqa boqishni bahona qilib, gunoh ishlarga qo'l urganini oqlaydiganlar ham ko'plab topiladi. Shayton ularga bu bahonalarini asosli va chiroyli ko'rsatib qo'ygan xolos", holbuki oilani ta'minlash birlamchi turar ekan, nega uni faqatgina dunyo ishi uchun ta'minlash kerak. Hayot bu dunyodan iborat emas, oxirat yo'li ham bor. Oxiratki, bu haqqi rost yo'l. Kimda kim bu yo'lni yo'qotsa, asl manzilidan adashadi. "*Tiriklik bir sinovdir*", deb nomlangan talqinda iymonning yana bir ustuni omonatni asrash haqida gap boradi.

*Yo'qotmasin hech kim rost yo'lin,
Tilamasin o'ziga o'lim.*

Hayot ming mashaqqatli bo'lmasin;

Yaxshi erur kimki dunyoda,

Shoyad bu ish bo'lgay ziyoda.

Yomon bo'lsa, shoyadki bir kun,

Intilgay Haq rizosi uchun.⁴

To'g'ri yo'ldan ozib, quyushqondan chiqish, o'ziga o'lim tilash ma'n etilgan. "*Yaxshi odam o'z umri uzun bo'lishini istasin, shoyadki yaxshi amallar ko'payib boraversin. Hatto yomon odam ham uzoq yashasin, yaxshi ishlar qilishga yarab qolsin. Shoyadki, Olloh roziligini topsa*". Avvalo niyat to'g'ri bo'lsa, iymon mustahkamligi shunga qarab belgilanadi.

Shoir she'riyatidagi tasavvufga xos jihatlarni kuzatish adabiyotning Muayyan davriga xos milliy oxanglar, diniy-didaktik va adabiyotning Qur'oni karim va

² A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 20-b.

³ A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 20-b.

⁴ A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 26-b.

hadislar matni bilan sintezini atroflicha yoritishga imkon tug‘diradi. Hadislar o‘z nomi bilan payg‘ambarimiz(s.a.v.) ibratli hayotlaridan bir lavha. SHuning uchun ularni aksariyatida "*Rasulullohni tinglab*", "*Rasululloh derlar*", "*Rasululloh berdilar savol*", "*Rasul derlar*", "*Rasululloh aylar marhamat*", "*Rasululloh demishlar*" singari iboralardan foydalanilgan.

Rasululloh aytdilar bir kun:

Ikki katta xalq boshlar qirg‘in.

Er yuziga dajjollar kelur,

Rasulman deb puch da‘vo qilur.

U dam ilm topg‘usi barham.⁵

Yoki: Rasululloh aylar marhamat:

Munofiqa bordir to‘rt illat.

Ne so‘zlasa bo‘lg‘usi yolg‘on,

Puch chiqadi va‘dasi har on.

Omonatga hiyonat qilgay,

Da‘vo chog‘i yolg‘on ontga shay.⁶ kabi.

Shoir ma‘lum bir g‘oyaviy, badiiy niyatda ushbu iboraga murojaat etadi. "Ikki dunyo saodati"da har bir sharh Rasululloh(s.a.v)ning xos sifatlariga ishora qilgan. Natijada ijodkor tafakkur hosilasi lirik qahramon e‘tiqodi aks etadi. Shuning uchun ham shoir talqinidagi bu hadislarda qalb musaffoligiga ishora seziladi.

Taningizda bir go‘sht bor

U qalb erur - bering e‘tibor.

U tuzalsa, vujud tuzalar,

Buzilgaydir, u buzilsa gar.⁷

Qalb - etiqod maskani. U buzilsa, inson imorati vayron bo‘ladi. Qalbnı asrash taqvo bilan. Taqvoga nafsni engish, O‘zini tanish va tavba orqali erishish mumkin. Tavba kufrdan qaytish, shariat ta‘qiqlagan ishlardan ketish, haqdan tashqaridagi narsalardan voz kechish bilan bir o‘rinda o‘z nuqsonlarini ko‘ra bilish, ahvolini anglash, qabih ish va fikrlardan, dunyoning arzimasligini bilib, zulmu adolatsizlikdan qaytishdir. Demak tavba - qilingan xato va nuqsonli ishlardan paydo bo‘ladigan pushaymonlik ekan, inson bu vaziyatda o‘ziga chora izlab, najot axtaradi. Bu amal Olloh nazdida xushdir. Shuning uchun shoir:

Shodlanadi Olloh shu qadar –

Tavba qilsa bandasi agar...⁸ - degan satrlarnı yozgan.

⁵ A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 36-b.

⁶ A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 42-b.

⁷ A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 52-b.

⁸ A`zam O`ktam, Ikki dunyo saodati , -T.: Cho`lpon, 1998, 23-b.

A‘zam O‘ktam she‘rlarini ichki bir shu‘la, e‘tiqod shu‘lasi yoritib turadi. Shoir estetik idealining yorqin taassurot va rangin sezgilari e‘tiqod yog‘dulari bilan yanada oydinlashadi. Shu ma‘naviy poetik unsurlar e‘tiqodiy olamning muayyyan chegarasini belgilaydi. Ta‘bir joiz bo‘lsa, e‘tiqod – shoir estetik idealining markazi, uning badiiy qimmatini oshiruvchi unsur deb aytish mumkin.

Demak-ki, A‘zam O‘ktam she‘riy talqinidagi hadislar klassik an‘analarning yangi bir davr sharoitida, ayniqsa, oraliqdagi katta vaqt falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, ahloqiy, ma‘naviy, adabiy, estetik evrilishlardan so‘ng davom ettirilishi natijasida o‘zgacha mazmun va qiyofa kasb etgan. "Ikki dunyo saodati" tom ma‘noda inson ichki imkoniyatlari, intilishlarining oliy maqomi manzildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nazariyasi, ikki jildlik, 1-jild, -T.: O‘qituvchi, 1978.
2. Aristotel, Poetika, -T.: adabiyot va san‘at, 1980.
3. Akromov B., She‘riyat gavhari, -T.: 1979.
4. Boboyev T., She‘r ilmi ta‘limi, -T.: O‘qituvchi, 1996.
5. Jaloliddin Rumi, Ichindagi ichindadir, -T.: 2009.
6. Jo‘raqulov U., Hududsiz jilva, -T.: Fan, 2006.
7. Islom tasavvuf manbalari, -T.: O‘qituvchi, 2005.
8. Mahmudov Q., Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq” asari haqida, -T.: Fan, 1972.
9. Muhammad Ismoil al-Buxoriy, Al jome‘ as-sahih, 4 jildlik, 2-jild, -T.: 1997.
10. A‘zam O‘ktam, Ikki dunyo saodati, -T.: Cho‘lpon, 1998.